

## **TRANSPORT SOHASIGA OID TERMINLARNI O’QITISH USULLARI**

**Turobov Jaxongir Ravkat o‘g‘li,**  
*O’zDJTU*  
*jahongirturobov@mail.ru*

*Annotatsiya.* Bugungi kunda mamlakatimiz sohaviy tizimlarida amalga oshirilayotgan islohotlar tilning leksik sathiga kirib kelayotgan xalqaro terminlar oqimini jadallashtirmoqda. Bu hol soha egalarining o‘z kasbiga oid termin va tushunchalarning asl mazmun-mohiyati to‘g‘risida yetarli bilimga ega bo‘lishlarini taqazo etmoqda.

**Kalit so‘zlar:** termin, terminologiya, metodika, o‘qitish.

Terminologiya yo‘nalishiga oid faoliyat natijalarini keng qo‘llanishi terminologik sohaning keyingi yo‘nalishlarini ochadi, yangi maqsad va vazifalarni belgilashga imkon beradi. Ilmiy adabiyotlarda termin so‘ziga turlicha ta’riflar keltirib o‘tilgan masalan, A.Hojiyev terminga quyidagi definisiyani keltirgan, “Termin (lot. terminus - chek, chegara, chegara belgisi). Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki so‘z birikmasi, atama. Terminlar bir ma’noli bo‘lishi, ekspressivlik va emosionallikka ega bo‘lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste’moldagi so‘zlardan farqlanadi dea ta’kidlagan<sup>1</sup>. R.Rasulov, R.Niyozmatova va Q.Mo‘ydinovlarning “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati” kitobida “termin kasbiy ma’no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim ob’yektlar va ular o‘rtasidagi muayyan kasblar nuqtai nazaridan bilish hamda o‘zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so‘z yoki birikmadir”, deb ko‘rsatilgan<sup>2</sup>.

O.Axmanovaning fikricha, “termin” maxsus tushunchalarni aniq ifodalash va ularga xos narsalarni to‘g‘ri talqin etish maqsadida ishlab chiqilgan (qabul qilingan, o‘zlashtirilgan) tildagi (ilmiy, texnikaviy va boshqa) maxsus so‘z yoki so‘zlar birikmasidir<sup>3</sup>.

Mantiqshunoslar tomonidan “termin” so‘zi bilan birgalikda “term” so‘zi ham qo‘llaniladi. Rus tilida “termin” va “term” tushunchalari mavjud bo‘lsa, ingliz tilida har ikki ma’noni o‘zida mujassam etgan “term” qo‘llaniladi va bu so‘zdan o‘z navbatida yana bir necha boshqa ma’nolar kelib chiqadi. “Term” (ing. term , fr. terme, lot. terminus “chegara”, keyinroq – “ifoda”, “izoh”) mazkur ma’noda inglizlar

<sup>1</sup> Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.- Т.: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси”, 2002.- 104 б.

<sup>2</sup> Расулов Р. ва бошқалар “Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати”. Т.: “Фан ва технологиялар маркази босмахонаси, 2009. - 45 б.

<sup>3</sup> Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М., 1966.- 479 б.

tomonidan “technical term” so‘z birikmasi bilan ifodalanadi va so‘z birikma ko‘p hollarda “texnik termin” tarzida tarjima qilinadi.

Termin – ma’lum vaziyatlarda va ma’lum maqsadlarda konseptual ma’noni ifoda etish maqsadlarida qo‘llaniladigan, fan va siyosiy ijtimoiy (kasbiy) faoliyatda o‘rnatilgan tartibda qabul qilingan maxsus so‘z yoki so‘z birikmasidir. Terminni ma’lum doiradagi kasbiy bilimlarning tushunchalar sistemasiga kirgan tushunchaning so‘z bilan ifodalanishi, yoki ma’lum maqsadga qaratilgan tilning eng asosiy tushuncha birligi, deyish mumkin<sup>4</sup>.

Hozirgi zamon metodikasida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish keng targ‘ib etilib unda, o‘qitishning asosiy g‘oyasi bu o‘rganish usullari hisoblangan eshitib, ko‘rib va his qilib o‘rganish (auditorial, vizual va kinestetik) turlarini inobatga olgan holda darslarni tashkillashtirish hisoblanadi. Darslarni rejalashtirishda barcha keltirilgan o‘rganish usullarini qamrab oladigan mashqlar tizimidan foydalanish ko‘zda tutiladi. Amaliy mashqlarni bajarish va vazifalar turlari, albatta, barcha usulga mansub o‘rganuvchilar ehtiyojini qondirishi inobatga olinishi lozim. O‘quv jarayonida transport sohasiga oid terminlarni to‘g‘ri talaffuz qilish. Masalan: Bogie [bōgē] – arava, compartment [kəmpa:t̪m(ə)nt̪] – kupe, freight [freit̪] – yuk , passenger [pasindʒə] – passajir, guard [ga:d] – provodnik, foreman [fɔ:mən] – brigadir va shu kabi terminlarni eslab qolishga erishishda interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirib, sohaga oid terminlar talaffuzini o‘zlashtirish mazkur terminlarni bilish, amalda qo‘llash, to‘g‘ri tushunish va tahlil qilishni mustahkamlashga imkon beradi.

Dars jarayonida ko‘rgazmalilik, materiallarning mavzuga mosligi va individual yondashuvlarga to‘g‘ri amal qilinishi bo‘lg‘usi temir yo‘l mutaxassislarning terminlarni o‘ziga xosligi va tizmlashtiruvchi xususiyatlarini o‘rganishi, turli nuqtai nazarlarni taqqoslashi hamda baholash va xulosa chiqarish imkonini oshiradi. Oq‘itishning keyingi bosqichida temir yo‘l sohasiga oid terminlarning normativ birlik sifatidagi umume’tirof etilgan xususiyatlari aniqlanadi.

Mashg‘ulotlarda soha vakillari terminlarini talaffuz qilish ko‘nikmasiga alohida e’tibor qaratish muhum sanalib bu — kasbiy muloqotda soha terminlarini qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirib terminlarni oson o‘zlashtirishga imkon yaratadi. Soha termin tarkibidagi tovushning noto‘g‘ri talaffuzi termin ma’nosining o‘zgarishiga olib kelib og‘zaki kommunikatsiya jarayonini murakkablashtiradi va bu bevosita fonetik ko‘nikmalarning ma’no farqlanish xususiyati borligini isbotlaydi. O‘quv jarayonida

<sup>4</sup> Суперанская А.В. Общая терминология. – М.: Наука, 1989. – 11 6

interfaol metodlardan foydalanish temir yo‘l sohasiga oid terminlar talaffuzini bilish, o‘zlashtirish, tushunish, tahlil qilish va amalda qo‘llash imkonini takomillashtiradi.

Dars samaradorligini oshirishda autentik materiallar talabaning o‘rganish usuliga moslashtirilishidan avval uning amaliy jihatdan qo‘llanilishiga moslashtirilishi lozim. Xorijiy tillarni o‘qitish har doim amaliy shaklda bo‘lishi va xozirgi kunda dolzarb bo‘lgan amaliyotning o‘quv jarayoni bilan integratsiyasi nuqtai nazaridan qaralganda talabalarga tilning real hayotda ko‘rinishi o‘rgatilishi va ularning kasbiy va kundalik hayotida kerak bo‘ladigan ko‘nikmalar bilan boyitish zarur. Ehtiyoj, qiziqish va qadriyatlarga mos o‘quv maqsadlar o‘rganilayotgan materialga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, transport sohasiga oid terminlarni o‘qitishda dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish bo‘lg‘usi mutaxassislarining kasbiy kompetansiyasini takomillashtirishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Sohada malakali kadrlarni tayyorlash va soha rivoji transport sohasiga oid terminlarning doimiy ravishda izchil o‘rganib borishiga xizmat qiladi. Transport sohasiga oid terminlarni o‘rganishning dolzarbligi, asosan, xalqaro aloqalarning rivojlanishi, mahalliy va xorijiy hamkorlikni kengayishi, shuningdek, ushbu sohada aloqaning oshib borishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib unda malakali kadrlar faoliyati yetakchi o‘rin egallaydi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. - M., 1966.- 479 b.
2. Rasulov R. va boshqalar “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati”. T.: “Fan va texnologiyalar markazi bosmaxonasi, 2009. - 45 b.
3. Superanskaya A.V. ObЩaya terminologiya. – M.: Nauka, 1989. – 11 b.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.- T.: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”, 2002.- 104 b.